

AGROMETEOROLOGIK POSTDA TUPROQ YUZA QAVATI HOLATI VA NAMLIGINI KUZATISH

Bo'riyev A.D.

Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti, Gidrometeorologiya yo'nalishi talabasi.

Аннотация: В данной статье представлены уровни влажности почвы, используемые в сельском хозяйстве. Проводится мониторинг влажности и состояния поверхностного слоя почвы. Наблюдения начинаются ранней весной, когда с поля выпадает снег, и продолжаются до тех пор, пока в хозяйстве не будет собран урожай

Ключевые слова: Почва, Влага, Сельское хозяйство, Полевая книга, Песок, Избыточная влага, Сухость, Агрометеология.

Abstract: This article presents soil moisture levels used in agriculture. Monitoring of moisture and condition of soil surface layer is carried out. Observations begin in early spring when the snow falls from the field and continue until the crop is finished in the farm.

Key words: Soil, Moisture, Agriculture, Field book, Sand, Excess moisture, Dry, Agrometeorology

Qishloq xo'jaligi mashinalari va qurollaring ish unimdorligi va sifati ko'p jihatdan tuproq yuza qavatining namlik darajasiga bog'liq. Shuning uchun ham tuproq yuza qavatlar holatini kuzatish xo'jalik uchun katta ahamiyatga ega. Bu bahor va kech kuzda, yani dala ishlaring boshlanishi va tugallanishi davrida aytiniqu muhimdir. Kuzatishlar erta bahorda daladan qor ketishi bilan boshlanib, xo'jalikda ekish tamom bo'lguncha, kuzatish uchastkasida esa, ekin unib chiqquncha davom etadi. Kuzda birinchi sentabrdan boshlanib, yer haydalganda tugatiladi. Bahorda va kuzda har kuni ertalab (soat 8-9 larda) o'tkaziladi. Zarurat to'g'ilganda qo'shimcha kuzatish muddatlari belgilanadi.

Tuproq yuza qavatining xolati va namligini aniqlash qo'shimcha kuzatish bo'ylab, uni o'tkazishni xo'jalik rahbarlari hal qiladi. Kuzatuv o'tkazish va uni yozib borish. Tuproqning xolatini aniqlash uchun 2 tadan namuna olinadi: birinchisi yuza qavatning 2 sm chuqurlikdan, ikkinchisi 10-12 sm chuqurlikdan olinadi. Tuproqning namlik darajasi quyidagi usullar yordamida aniqlanadi: O'ta namlangan-tuproqning ozgina bo'lagi olinib idishga solinadi, aralishtiriladi va pichoq yordamida idish tubiga va qisman devorlarga 1 sm qalinlikda surtiladi. Keyin pichoq bilan idishni o'rtasiga egat ochiladi. Kiyin idishni bir qulda ushlab turib, idishning tagidan bir necha marta (5-8) ikkinchi qo'l bilan sekingina uriladi. Agar idish tubidagi egatga suv yarimdan ko'pga ko'tarilsa, tuproq o'ta namlangan hisoblanadi. Kuchli namlangan-qul bilan urilganda, ariqchada suv butunlay ko'tarilmasa yoki yarimigacha ko'tarilsa, unda yangi namuna olinib, unga pichoq tiqiladi. Tez qaytib olingan pichoq ifloslangan bo'lsa tuproq kuchli namlangan hisoblanadi.

Tuproqning kuchli namlanganligini boshqa usul bilan ham aniqlash mumkin.

Tuproqning bir bulakchasini kaftga bosish kerak. Qo'l ifloslanib qolsa, tuproq kuchli namlangan hisoblanadi. Yaxshi namlangan tuproq-pichoq bilan kechganda pichchoqqa yopishmasa qul bilan yozganda istalgan shaklini olsa va qo'l bilan cho'zganda 3-4 mm qalinlikdagi ip shakliga kelsa yaxshi namlangan tuproq deb hisoblanadi. Tuproqni qo'l bilan birga siqilganda biror shakilga kelsa, tuproq kuchsiz namlangan hisoblanadi. Quruq tuproq -tuproq kuch sarf qilib ezilsa, u shaklini o'zgartirmay alohida bo'laklari bir-biriga qo'shilmasa, hamda qumloq tuproq sochilib ketsa, bunday tuproq quruq tuproq hisoblanadi. KXK 1dala kitobchasining <<Tuproq yuza qavatining holati va namligini kuzatish>> degan bo'limiga dala ko'rinishi (qumli tuproq, loyli tuproq) va sana (oy, kun) yoziladi.

Tuproq holati dala kitobchasining kerakli joyga qisqartirilib yoziladi.

O'N-o'ta namlangan, KN-kuchli namlangan, YN-yaxshi namlangan, KUCHN-kuchsiz namlangan Q-quruq, M-muzlagan. Tuproq namligi notekis bo'lib, uch joydan olingan tuproqning namligi har xil bo'lsa, dala uchun umumiy bo'lgan namlik yoziladi. Masalan, bir nuqtada namlik kuchsiz bo'lib, 2, 3, yaxshi namlangan bo'lsa asosiy namlik deb yaxshi namlanganlik olinadi. Kuzatishga faqat ikkita uchastka olingan bo'lib, u yerlarda namlik har xil bo'lsa qo'shimcha kuzatish uchastkasi olish kerak. Agar tuproq biror uchaskada muzlagan bo'lsa <<Tuproq namligi>> deyilgan joyga <<M>>.- yoziladi. Tuproqning namlik darajasini baholash 1.4-jadvalda berilgan.

1-jadval

Tuproqning namlik darajasini baholash

Tuproqning namlik darajasi	Mashinalarning ishlash sharoiti
Ortiqcha namlangan	Traktor, mashina otlar loy tuproqqa botib ketishi asida dala ishlari deyarli mumkin emas.
Kuchli namlangan	Dala ishlarni bajarish qiyin; ish sifati past; tuproq irakka va silkaning tirgagiga yopishib qoladi.
Yaxsh namlangan	Tuproq ishlovi yaxshi olib boriladi, ish unumli yuqori va fati ko'tariladi.
Kuchsiz namlangan	Tuproq ishlovi qiyinroq, qushimcha kuch talab qiladi, ish qonigarli.
Quruq	Tuproqqa ishlov berilganda bo'laklarga bo'linib ketadi, qushimcha kuch talab etiladi, omochning tuproqqa kirishi qiyinlashadi.

Xulosa. Maqoladan shuni xulosa qilamizki, Agrometeorologiya postlarda kuzatish ishlari maxsus jihozlangan meteomaydonchalarda (5x6m) bevosita ekinzorlardayagona uslub hamda dastur asosida olib boriladi. Kuzatishlar asosan qishloq xo'jaligida tuproq yuza qavatining namlik darajasi kuzatishlari olib boriladi. Kuzatishlar ekin ekilib to xosil yig'ib olinguncha davom etadi Tuproq namligi va sifati o'rganilib boriladi. Tuproq holati dala kitobchasining kerakli joylariga qisqartirilib yozib boriladi. O'zbekistonda va Qoraqalpog'istonda asosan tuproqlar shurlanish darajasi ortib bormoqda va qishloq xo'jalik ekin maydonlariga katta zarar

yetkazmoqda. Bu esa o'z navbatida Agrometeorologiyaga bulgan ehtiyojlarni oshirib bormoqda.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Султашова О. Г. и др. Моделирование температурного режима почвы //Ученый XXI века. – 2016. – №. 5-4 (18). – С. 30-34.
2. Sultashova O. G., Jaksibaev R. N., Aleuov A. S. Dangerous meteorological events affecting pasture plants in Karakalpakstan //Экономика и социум. – 2021. – №. 5-1 (84). – С. 476-480.
3. Sultashova O. et al. Modeling of Temperature Mode of the Soil //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 04. – С. 6057-6068.
4. Султашова О. Г., Далжанов К. О., Файзуллаева А. Х. По вопросу агроклиматического районирования территории Каракалпакстана //Инновационный потенциал развития науки в современном мире. – 2020. – С. 329-334.
5. Sultashova O. G., Kewnimjaeva A. A. The importance of soil thermal regime in the life of plants //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-1 (83). – С. 399-402.
6. Imanmurzaev A. Q., & Abdullaev , T. J. O. (2023). JANUBIY OROL BOYI IQLIM SHAROITI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(21), 73–77. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/983>
7. Imanmurzaev , A., & Sultashova , O. (2024). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI HUDUDIGA XAVFLI GIDROMETEOROLOGIK HODISALARNING TA'SIRINI VANOLASH. Interpretation and Researches, 2(3(25). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2187>
8. Хожамуратова Р. Т., Жангабаев Д. М., Иманмурзаев А. Қ. МНОГОЛЕТНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ МИНЕРАЛИЗАЦИИ ГРУНТОВЫХ ВОД НА ОРОШАЕМОЙ ТЕРРИТОРИИ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.
9. Imanmurzaev , A., & Kalmurzaev , J. (2024). OROL BOYI HUDUDIDA QURG'OQCHILIK HODISASINING O'ZGARISHI. Talqin Va Tadqiqotlar, 2(6(43). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2064>
10. Султашова О. Г. и др. ЎЗБЕКИСТОН ХУДУДЛАРИДА ЧАНГЛИ БЎРОНЛАРИНИНГ ҲОСИЛ БЎЛИШИ ВА ДАВОМИЙЛИГИ //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 11. – С. 45-49.
11. Genjebaevna S. O., Qaldibaevich I. A. QISHLOQ XO'JALIGIGA TA'SIR ETIVCHI XAVFLI GIDROMETEOROLOGIK HODISALARNI VANOLASH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI) MISOLIDA //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 11. – С. 38-44.
12. Султашова О. Г., Султашов Р. Г. ПОЛНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АГРОМЕТЕОРОЛОГИЧЕСКИХ И ГИДРОПРОГНОЗОВ В МЕЛИОРАТИВНОМ ДЕЛЕ УЗБЕКИСТАНА //ИННОВАЦИОННЫЙ ПОТЕНЦИАЛ РАЗВИТИЯ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. – 2020. – С. 334-340.
13. Sultashova O., Ubaydullaev K. D. Development of animal husbandry in the territory of the republic of karakalpakstan in difficult ecological conditions //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 7. – С. 127-129.
14. Sultashova O. G. et al. To study the effect of thermal resources on crop productivity in agricultural systems //Экономика и социум. – 2022. – №. 4-1 (95). – С. 171-175.
15. Kewnimjaeva A.A., Satbaeva E.K., Sultashova O.G. KLIMAT ÓZGERIWINIŇ TOPÍRAQ TEMPERATURASÍNA TÁSIRI //МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ БЕРДАХА. – С. 173.